

INFLATSIYA VA INFLATSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI

Urinboyeva Yulduz Pirnazarovna – i.f.f.dok., dotsenti

O'rinov Bunyodbek Dilshod o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu amaliy ishda inflatsiya haqida ma'lumot va unga mos ravishda krasvord tuzilgan.

Аннотация: В данной практической работе представлена информация об инфляции и соответствующий кроссворд.

Annotation: In this practical work, information about inflation and a corresponding crossword puzzle have been created.

Kalit so'zlar: Inflatsiya, Inflatsiya darajasi ko'rsatkichlari, Inflatsiyani oldini olish choralari.

Ключевые слова: Инфляция, показатели уровня инфляции, меры по предотвращению инфляции.

Keywords: Inflation, Inflation rate indicators, Measures to prevent inflation.

Inflatsiya—ma'lum davr mobaynida mamlakatda baholar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi, pulning xarid qobiliyati uzoq muddatli pasayishi. Qisqa qilib aytganda, inflatsiya bu pulning qadrsizlanishidir. AQSHning Shimoliy va Janubiy shtatlari o'rtasida fuqarolar urushi bo'lganda muammolarga juda ko'p miqdorda qog'oz dollar chiqarilgan vaqtdan boshlab „inflatsiya” so'zi qo'llanadi. Inflatsiya-bu umumiy narxlar darajasining oshishi natijasida pul qiymatining pasayish jarayoni. Uni vujudga keltiruvchi omillar: Tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. Birinchi galda sifati yaxshilanmagan holda tovarlar va xizmatlar narxining ko'tarilishi ko'rinishida, shuningdek, oltin va chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan qimmatlashishi shaklida yuz beradi. Tovar

ishlab chiqarishning to'lov qobiliyatiga ega talab o'sishidan ortda qolishi, bozorda talabga javob bermaydigan tovarlarning ko'payib ketishi,

byudjet kamomadlarini qoplash uchun qo'shimcha pul emissiyasi, investitsiyalarni emissiya hisobidan moliyalashtirish, monopol narxning mavjudligi, narxni oshib keti-shidan hadiksirab tovarlarni keragidan ortiq xarid etish, mamlakatga qadrsizlangan chet el valyutasining ko'plab kirib kelishi va boshqa omillar inflyatsiyani yuzaga keltiradi. Rivojlangan davlatlar inflatsiya darajasini 3,5% ni, trivojlanayotgan davlatlar esa 12% inflatsiya darajasigacga ko'tara oladi.

Davlatlarda inflatsiya darajasi ko'rsatkichlari

Joriy yilda dunyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy natijalarda katta farqlar kuzatildi. Global iqtisodiyot 3,2 foizga o'sdi, bunda inflatsiyaning nisbatan pasayishi va iste'molchilarning faol xarajatlari muhim omil bo'ldi. 2022 yil yakunlariga ko'ra, Zimbabve dunyodagi eng yuqori inflatsiyaga ega davlatga aylandi. **RIA NOVOSTI** xabariga ko'ra, Afrikaning ushbu davlatida inflatsiya darajasi 243,8 foizni tashkil qilgan. Natijada, bu davlat o'z pul birligi Zimbabve dollaridan, AQSH dollariga o'zgartirishga majbur bo'ladi.

O'zbekistonda 2024-yil oxiriga kelib inflatsiya 9,8% ni tashkil qiladi. Ba'zi manbalarda 10,5%. Ammo potensial inflatsiyamiz 21% ga yaqin. Bizning ko'plab tovarlar eksportdan ko'ra ko'proq import bo'lib keladi. Mamlakatimizda ko'plab ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar biz uchun Milliy mahsulot deyolmaymiz, sababi bularning katta qismi bizga import bo'lib keladi. Import hajmining oshishi chet el valyutasini milliy valyutamizga nisbatan ta'siri ortib boradi. Biz ko'pgina xomashyoni ishlab chiqargandan ko'ra, import qilish arzon tushishini aytib o'tamiz. Lekin bu milliy valyutamizni qadrsizlanishiga va ishlab chiqarish sektorlarining jadal kengayishiga to'sqinlik qiladi.

Bugungi kunda har qanday darajadagi inflyatsiya salbiy jihatga ega degan fikr ommada mavjud bo'lib, aslini olganda inflyatsiyaning har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o'sish uchun kam foizli barqaror inflyatsiya bu tabiiy jarayon. Past darajadagi inflyatsiya iqtisodiyotda qo'shimcha talab yaratishi orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Inflyatsiyaning umuman yo'q bo'lishi esa

iqtisodiyotning o'sish sur'atini pasaytirib yuborishi mumkin. Shiddatli inflyatsiya kelgusida yuqori inflyatsiyaga olib kelib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan past darajadagi barqaror inflyatsiya ijobiy hisoblanadi.

Inflyatsiyani kelib chiqishiga ko'ra ikki toifaga ajratish mumkin:

1. Talab inflatsiyasi. Inflyatsiyaning bu turi talabning keskin oshishi natijasida iqtisodiyotda pul taklifining oshishiga yoki xaridorlar tomonidan inflyatsion kutilmalarni shakllanishiga olib keladi. Sodaroq qilib aytganda, ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovar va xizmatlar narxlari o'sadi.

2. Taklif inflatsiyasi. Inflyatsiyaning bu turi ishlab chiqarish xarajatlarining keskin oshishi natijasida sodir bo'ladi. Ya'ni, har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar (soliqlar o'zgarishi, energiya resurslari narxlari oshishi, davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar oshirilishi va boshqalar) tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Natijada ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning narxlari oshadi.

Inflatsiyani oldini olish choralari:

1. Pul-kredit siyosati (Monetar siyosat). Bu markaziy bank tomonidan inflyatsiyani nazorat qilish uchun amalga oshiriladigan choralar majmuasi:

Foiz stavkalarini oshirish – Markaziy bank kredit olishni qimmatroq qiladi, bu esa iqtisodiyotda pul massasini kamaytiradi. Pul emissiyasini cheklash – Markaziy bank ortiqcha pul chiqarishni kamaytirib, narxlarning haddan tashqari oshib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar (Ochiq bozor operatsiyalari) – Markaziy bank bozorga obligatsiyalar chiqarib, ortiqcha pulni o'ziga tortishi mumkin. Fuqarolar qo'llaridagi pul mablag'larini chet el valyutasiga ya'ni import va eksportda katta ahamiyatga ega valyutalar (AQSH dollari, euro va funt sterling)ga almashtirish orqali inflatsiya xavfini o'zlari uchun pasaytiradilar.

Quyidagi tayyorlangan krasvord inflatsiya mavzusiga doir tuzilgan:

1. 2022-yilda Jahon bo'yicha qaysi davlatda inflatsiya darajasi eng yuqori ko'rsatilgan?

2. Inflatsiyani kelib chiqishiga ko'ra 2 toifasidan birining nomi?

3. Inflatsiyaga qarshi kurashish nima deyiladi?

4. Barcha turdagi tovar va xizmatlarni ayirboshlashda umumiy ekvivalent rolini bajaruvchi maxsus tovar nima deb ataladi?

5. Qimmatli qog'ozar bilan operatsiyalar qanday operatsiyalar hisoblanadi?

6. Inflatsiya darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omil nima?

7. O'zbekistondagi tijorat banklaridan birining nomi.

8. O'zbekiston budjetidagi mablag'ni eng ko'p qaysi sohaga sarflaydi?

9. Milliy valyutani barqarorligini ta'minlash qaysi bank tomonidan amalga oshiriladi?

10. Pul-kredit siyosati yana qanday siyosat deb ham yuritiladi?


11. Qanday davlatlar 3,5 % gacha inflatsiya darajasini ko'tara oladi?

12. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi 2008-yilda bo'lib o'tgan bo'lib, AQSHda banklarning..... kreditlarini qarzini qaytarish qobiliyati bo'lmaganlarga berilishi oqibatida boshlandi.

13. Kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inflyatsiya bo'lib, u iqtisodiy omillar, pul-kredit siyosati va talab-taklif o'zgarishlariga qarab shakllanadi. Bu qanday inflatsiya?

14. 2022-yil ma'lumotiga ko'ra inflatsiya darajasi ko'rsatkichi bo'yicha 52-o'rinda turuvchi davlat nomi.

15. Eksport va import jarayonida muhim rol o'ynaydigan 3 ta valyutadan birining nomi?



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Globalniy ustoy: Aralash iqtisodiyotning joriy va tushunchaga asoslangan Taftishlar” – Jeffrey D. Sachs: Bu kitobda iqtisodiyot universitet professori Jeffrey Sachs ko‘plab mamlakatlar orasidagi iqtisodiy aloqalarni o‘rganib boradi va qanday Qilib dunyo bozori biznesini ixtiyoriy o‘zgartirish mumkinligini taqriz qiladi.
2. „Aralash iqtisodiyot tushunchalari va dasturlari” – David G. Blanchflower va Andrew J. Oswald: Uchta bo‘limda bo‘lingan bu kitobda avtorlar global ish tizimlar, mehnat bozorlarining o‘zgarishi, global moliyaviy to‘garaklar va rivojlanishga yondashuv kabi mavzularni ko‘rinishi bilan mashhur.